



POLITICAL PRESSURE AND IDEOLOGICAL CONTROL: THE POLICY OF VIOLENCE AGAINST INTELLECTUALS IN UZBEKISTAN IN THE 20TH CENTURY

Muhammadjon Alixanov

Associate Professor, Candidate of Historical Sciences

Namangan State technical university

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, Soviet era, repression, scholars, writers, communist ideology, ideological assault, political pressure.

Abstract: This article analyzes the ideological and political persecution of scholars, literary figures, and artists in Uzbekistan during the Soviet regime. It examines the increasing political pressure on the intelligentsia and the repressive campaigns carried out by the communist system. The study is based on various documents, scholarly works, and periodical press materials. The consequences of the Soviet government's repressive policies are presented through scientific conclusions.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

SIYOSIY TAZYIQ VA MAFKURAVIY NAZORAT: XX ASRDA O'ZBEKISTONDA ZIYOLILARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK SIYOSATI

Muhammadjon Alixanov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Namangan davlat texnika universiteti

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, sovet davri, qatag'on, olimlar, yozuvchilar, kommunistik mafkura, g'oyaviy huruj, siyosiy bosim.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sovet tuzumi hukmronligi davrida O'zbekistonda olimlar, adabiyot va san'at vakillarini mafkuraviy va g'oyaviy jihaddan ta'qib ostiga olinishi, ularga nisbatan siyosiy bosimlar kuchayishi tahlil qilingan. Ziyolilarga nisbatan kommunistik tuzumning qatag'on jarayonlarini olib borishi turli hujjatlar, ilmiy asarlar, vaqtli matbuot materiallari asosida o'rGANILGAN. Sovet hukumati olib borgan qatag'on siyosatining oqibatlari ilmiy xulosalarga tayanib yoritib berilgan.

ПОЛИТИЧЕСКОЕ ДАВЛЕНИЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЙ КОНТРОЛЬ: ПОЛИТИКА НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В XX ВЕКЕ

Мухаммаджон Алиханов

Кандидат исторических наук, доцент

Наманганский государственный технический университет

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, советский период, репрессии, учёные, писатели, коммунистическая идеология, идеологическое давление, политическое давление.

Аннотация: В данной статье проанализированы идеологические и политические преследования учёных, деятелей литературы и искусства в Узбекистане в период господства советской власти. Рассмотрено усиление политического давления на интеллигенцию и процессы репрессий, проводимые коммунистическим режимом. Исследование основано на различных документах, научных трудах и материалах периодической печати. Последствия репрессивной политики советского правительства освещены на основе научных выводов.

Kirish

Sovet mustabid tuzumi yuritayotgan mustamlakachilik siyosatining asl mazmuni va kirdikorlari haqida haqiqiy ma'lumotlar tarqalishi, xalq ommasi ongida kommunistik mafkuraning ichki ziddiyatlari, kamchilik va nuqsonlarini oolib berishga qaratilgan harakatlar to'lqini yuzaga kelgan edi. Ayniqsa, milliy uyg'onish g'oyalalarini olg'a surgan ziyorilar, yoshlar va tarixchilar tomonidan bildirilgan erkin fikrlar, mustaqillikka intilish ruhi partiya va davlat ma'muriyatini jiddiy tashvishga soldi. Chunki bunday g'oyalalar kommunistik mafkuraning "barcha xalqlar tengligi", "farovon sotsialistik jamiyat" haqidagi da'volariga zid kelar, shu bois ularni bardavom saqlash va keng ommaga tanishtirish xavfli deb baholanar edi.

Ziyorilar o'z faoliyatlarida tarixiy adolatni tiklash, milliy qadriyatlar va tilni saqlash, mamlakatning mustaqil taraqqiyoti haqida ochiq fikr bildirishga urinishgan. Ular xalqning huquqiy va siyosiy ongini uyg'otishga harakat qilganlar. Ammo bu intilishlar totalitar tuzum manfaatlariga zid bo'lgani uchun partiya va davlat organlari tomonidan qattiq qarshilikka uchradi. Natijada ziyorilarga nisbatan zo'ravonlik, ta'qib, tazyiq va turli ma'muriy jazolarni o'z ichiga olgan siyosat keng ko'lamda amalga oshirildi. Ularni "xalq dushmani", "millatchi" yoki "burjua millatchilari" sifatida tuhmat qilish orqali jamiyatdan cheklash, siyosiy hayotdan siqib chiqarish yo'liga o'tildi.

Tadqiqot uslublari

O'zbekiston ziyolilariga nisbatan partiya va davlat tomonidan olib borilayotgan zo'ravonlik siyosati 1980-yillarga kelib to'g'ridan to'g'ri paydo bo'limgan. Bu siyosatning ilk tamal toshlari Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan davridan boshlangan. Haqiqatda, mustamlakachilik davrida mahalliy elita, intellektuallar va milliy madaniyatning rivojlanishiga qarshi qat'iy choralar ko'rildi.

Bolsheviklar tomonidan 1917 yilgi Oktyabr inqilobidan keyin tashkil etilgan sovet hokimiyati davrida ham bu zo'ravonlik siyosati to'laligicha saqlanib qolgan. Qarorlar partiyaning markaziy idoralarida qabul qilinib, mahalliy darajada qat'iy amalga oshirilgan. Sovet davrida milliy madaniyat va ma'rifat sohalaridagi ziyolilar faoliyati nazorat ostida ushlanib, ularga qarshi ta'qiblar, qamoqqa olishlar, deportatsiyalar va hatto qiynoqlar ko'paygan.

Shu bilan birga, bu davrda zo'ravonlik siyosati nafaqat saqlab qolning, balki ancha kuchaytirilib, milliy o'zlikni yo'q qilish va sovet ideologiyasini joriy qilish maqsadida yangi usullar ham joriy etilgan. Masalan, ziyolilar orasida «milliy burjuaziya» sifatida qarash va ularni "vrach, kulaktar" kabi belgilar bilan ta'riflash orqali keng qamrovli siyosiy tazyiqlar amalga oshirilgan. Bu holat milliy madaniy merosga va milliy mustaqil fikrlarga bo'lgan bosimni yanada kuchaytirgan.

Shu tariqa, O'zbekistondagi partiya va davlat zo'ravonlik siyosati bir davrlik yoki bir xil darajadagi hodisa bo'lmay, uzoq yillar davomida, har xil shakl va kuchda, milliy elita va intelligentlar ustidan davom etgan katta ijtimoiy-siyosiy jarayon bo'lgan. Bu jarayonning tahlili mamlakat tarixi va milliy madaniyat rivojida muhim ahamiyatga ega.

Natijalar

Mustaqillik uchun olib borilgan har qanday kurashlar shafqatsizlik bilan bostirildi. 1917 yil 26-28 noyabrda tuzilgan Turkiston muxtoriyatining 1918 yil 19-22 fevralda bolsheviklar tomonidan ayovsiz yo'q qilinishi ham bunga misol bo'la oladi.

O'zbekistonda XX-asrning 20-30 yillarda kompartiya va sovetlar katta siyosiy fitna o'yinlarini ishga solib, bir tomonidan, milliy istiqlolchilarga, jadidlarga, milliy arbob va xodimlarga qarshi qirg'inbarot qo'lladi, ikkinchi tomonidan, sovetlar tomonga o'tganlarga umumiy avf e'lon qilib, biroz o'tgach, ularni birma-bir qatog'on qilichdan o'tkazdi.[1] Mustabit tuzum davrida milliy istiqlol uchun kurashganlarning faoliyatları va oldinga surgan g'oyalari soxtalashtirilgan hamda turli tuhmatlar qilingan. Ularni «aksilinqilobchilar», «xalq dushmanlari», «yot unsurlar», «burjua millatchilari» va boshqa nomlar bilan atalib kelindi, «Inog'omovchilik» va «Qosimovchilik» kabi uydirmalar o'ylab topildi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Saidnosir Mirjalolov, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Abdulla Qodiriy,

Abdulxamid Cho'lpion, Abdurauf Fitrat, Otajon Hoshimov, Usmon Nosir kabi millat jonkuyarlar, fidoiyları, halqimizni ozodlik, hurlik sari yetaklash, o'zligini anglatish, mustaqil fikrga ega bo'lishga chorlaganlari uchun ana shunday qatog'on qurboni bo'ldilar. Faqtat 1929 yil yanvaridan 1933 yilgacha mustabid tuzim respublika milliy ziyolilarining 217 vakilini [2] - yozuvchilar, jurnalistlar, davlat, jamoat arboblari va hokazolardan 5758 kishi qamoqqa olingan, ulardan 4811 kishi otib tashlangan.[3]

Mustabid tuzumning tazyiqiga duchor bo'lganlarning ko'pchilik qismi horijga muhojirlikka chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Shahobiddin Yassaviy 1920-1935 yillar mobaynida Turkistondan tahminan 2 milliondan ortiq kishi horijga ketganligini qayd etgan.[4]

Shunday qilib 1930-40 yillar chegarasida SSSRda o'ta markazlashgan va zo'ravonlikka asoslangan mustabid tuzum shakllandi. Bu davrda siyosiy va ijtimoiy nazorat kuchayib, har qanday norozilik va boshqacha fikrga qat'iy qarshi kurash olib borildi. Ayniqsa, 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshlarida bu tizim mafkura sohasida keng ko'lamlı hujumlarni avj oldirdi. Bu hujum asosiy zarbani boshqacha fikrlovchi «ijodkor va ilmiy ziyolilarga, «KPSS tarixi»da yozilganidek, «burjua qarashlari va nuqtayi nazarlari qoldiqlariga, reaksiyon burjua madaniyatiga tanqidiy baho bermaslikka qarshi, fan, adabiyot va san'atda marksizm-leninizmdan chekinishlarga qarshi» qaratdi].[5] Shu maqsadda adabiyotni qattiq tekshiruvdan o'tkazish ishlari boshlab yuborilgan. O'sha kezlarda Yozuvchilar uyushmasida M. Shverdin, N. Safarov, Z. Fatxullin kabi bir guruh xodimlarning aytgani-aytgan, deganlari degan edi. «Ular orasida V. Malchankov ismli adabiyot kushandası ayniqsa dahshatlı ishlarni amalga oshirdi».[6]

Ushbu repressiv siyosat asosan ijodkorlar va ilmiy ziyolilarga qaratildi. Kommunistik tarixida aytishicha, bu davrda «burjua qarashlari va nuqtayi nazarlarning qoldiqlariga, reaksiyon burjua madaniyatiga tanqidiy baho bermaslikka, shuningdek, fan, adabiyot va san'atda marksizm-leninizmdan chekinishlarga qarshi» kurash olib borildi. Bu degani, har qanday mustaqil fikrlash, yangi g'oyalar va ilmiy erkinliklar keskin cheklangan, markazlashgan mafkuraviy nazorat kuchaytirilgan. Oqibatda, ko'plab ijodkorlar, olimlar va madaniyat vakillari siyosiy repressiyalar, ta'qiblar, lavozimdan chetlashtirish va hatto qamoqqa olish kabi jazo choralariga duch kelishdi. Bu esa Sovet Ittifoqining ijtimoiy va madaniy hayotida katta inqiroz va sun'iy g'ovlar yaratdi, yangi fikrlar va ijodiy yangiliklarning rivojlanishini to'xtatdi.

1949 yil 25 iyunda O'zKP (b) MQ ning byurosida O'zbekiston yozuvchilar ishi muhokama qilindi.[7] MQ byurosi qabul qilgan qarorga ko'ra ayrim o'zbek yozuvchilarining ijodidagi kamchilik va nuqsonlar ko'rsatildi. A.Qahhor, M.Osim, Oybek, Mirtemir, Tuyg'un, Sharipov, M.Boboyev, O'.Rashidov, H.G'ulom, A.Qayumov, M.Shayxzoda kabi yozuvchilar tayziq ostiga olindi. Keyinroq, 1951 yil avgust oyidagi yozuvchilar uyushmasi VI plenumidan

so‘ng R.Bobojon, G‘.G‘ulom, Zulfiya, A.Muxtor hamda boshqa yozuvchi va shoirlarning «kamchiliklari» ko‘rsatib o‘tildi.

Respublika davlat havfsizligi organlari 1951 yilda 12 kishidan iborat «sovietlarga qarshi millatchilar guruhini» fosh etdilar. Shukrullo, Shuxrat, Shayxzoda, adabiyotshunos olim X.Sulaymonov va guruxning boshqa a’zolari 25 yildanga hukm qilindilar.

O‘zbekiston KP(b) MQ byurosi 1950 yil 1 sentyabrda «O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining ishi to‘g‘risida»gi masalani ko‘rib chiqdi.[8] Unda ijtimoiy gumanitar fanlarning ko‘pgina arboblari ham qoralandi. Tarixchi A.X.Boboxo‘jayev, faylasuf B.Yu.Zoxidov, iqtisodchi O.Aminov, adabiyotshunos O.Usmonov va boshqalar qattiq ta’qib ostiga olindi.

Mustabid tuzum qatagonchilik siyosatida juda keskin choralar ni qo‘llardi. 1934 yilda qabul qilingan jinoyat kodeksining 58-moddasiga ko‘ra «vatan xoinlari»ning oilalariga nisbatan ham bir qator ta’qib choralar ni qo‘llaniladi. Jumladan: «Xoin oilasining voyaga yetgan a’zolari jinoyat sodir etganlikda u bilan birga turgan yoki uning karamog‘ida bo‘lganlar saylash xuquqidan mahrum etilib, Sibirning chekka rayonlariga 5 yil muddatga surgun qilinadi», deyiladi. [9] Yoki 1937 yili Stalinga tasdiqlash uchun o‘sha vaqtdagi Ichki ishlar Halk Komissari Yejovning yuborgan bir hujjatida: «O‘rtok Stalinga. Tasdiqlashga Harbiy kollegiya sudida ko‘rish uchun to‘rtta ro‘yxatni yuboraman:

1. Ro‘yxat №1 (umumiyl)
2. Ro‘yxat №2 (Sobiq harbiy xizmatchilar)
3. Ro‘yxat №3 (Sobiq NKVD xodimlari)
4. Ro‘yxat №4 (Halq dushmanlarining xotinlari).

Hammasini birinchi kategoriya bilan hukm etishga rozilik berishingizni so‘rayman. Yejov». [10] Hujjatga ko‘ra otishga hukm qilinganlar «birinchi kategoriya» deb nomlanadi.

SSSR Xavfsizligi ministrligining 1950 yil 25 fevralda chiqargan qarori xam ko‘pchilik ziylolarimizning yostig‘ini quritgan. Unda ta’kidlanishicha, antisovet targ‘ibotni olib borgan har qanday shaxs surgunga mahkum.[11] Vaholanki bu targ‘ibot qanday bo‘lishini aniq tasavvur qilishga, norozilik bildirishga og‘iz juftlaganlarning hammasi dushman bo‘lib chiqardi. Mazkur qaror tufayli ozodlikdan mahrum etilganlarning ko‘pchiligi 25 yilga qamalib siyosiy xuquqlardan mahrum qilindi. Bir vaqtлari, ya’ni 1930-yillarda qo‘yilgan ayblar qaytadan qo‘zg‘atildi. Mustabid tuzumning qonli supurgisi o‘sha davrda O‘zbekiston bo‘ylab olib borgan «tozalash ishlari» oqibatida 1937 yildan 1953 yilgacha respublika NKVD «uchligi» tomonidan 100 ming kishi qamoqqa olindi va turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi, ulardan 15 ming nafari otib tashlandi.[12]

Mustabid tuzumning ziyolilarga nisbatan tazyiqi 1980 yillarning oxirigacha davom etib keldi. Bungacha bo‘lgan davrda ham ko‘zga ko‘ringan fan arboblari, adiblar, jurnalistlar, partiya va davlat tomonidan kuchli bosim va nazorat ostida bo‘ldilar.

Stalin vafotidan so‘ng ta’qib va qatag‘onga uchragan ziyolilarning ishlari qayta ko‘rib chiqilib 1954-1955 yillarda ozod etildilar, oqlandilar. Lekin ular doimo nazorat qilib turildi hamda ularning ijodlari kuchli mafkuraviy tekshiruvlar ta’siri ostida bo‘ldi.

«Esimda, -deb yozadi O.Yoqubov, 60- yillarda «Literaturnaya gazeta»da marhum yozuvchimiz A.Qahhor «Husnbuzar» maqolasi bilan chiqqan, paxtakor ayollarimizning mehnati qanchalar og‘irligi, yozuvchilar va kinematografchilarning bu mehnatni chiroyli atlas ko‘ylaklar kiygan qo‘schiqchilarning bayramidek qilib ko‘rsatishga urinishlari qanchalik sharmandalik ekani to‘g‘risida yozgan edi. Uning maqolasidan keyin nima yuz berdi! Majlislar bo‘ldi, nutqlar so‘zlandi, ehtiyyot choralar ko‘rildi. Yozuvchining turmushni qoralab yozishda, hayot manzaralarni buzib ko‘rsatishda ayplashdi».[13] Chunki adabiyotda ijod uchun ma’lum yo‘nalishlar, qat’iy belgilab quyilgan mavzular bor edi. Masalan: inkilobdan keyingi qo‘lga kiritilgan yutuqlar, ruslarning Turkistonning bosib olishining progressiv ahamiyati, dohiy Lenin obrazi, halklar do‘stligi, denga qarshi kurash, ayollarning tashkilotchilik roli, kommunizm ga‘alabasining muqarrarligi va hokazo.

Tarixiy jarayonlarga baho berishda ham ma’lum tartib hukm surdi. Tarixiy mavzularni obyektiv yoritishga harakat kilgan ziyolilar katta to‘siqlarga duchor bo‘lishgan. 1968 yilda akademik I.Mo‘minovning «Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan va roli» kitobi chop etildi. Moskvada chiqadigan «Istoriya SSSR» jurnalining 1973 yil 5-sonida olimning kitobi keskin tanqid qilindi. I.Mo‘minovga qo‘yilgan asosiy ayb Amir Temurni ideallashtirish va uning zolimligini yetarli darajada ochib berilmaganligi edi.[14] Olim qattiq ta’qib ostiga olindi. Shundan so‘ng 90-yillargacha o‘tgan davr mobaynida A.Temur to‘g‘risida sezilarli ilmiy yoki ilmiy ommabop asar yozilishiga imkon berilmadi.

Adabiyot va adabiyot tarixi, tarix, falsafa kabi ijtimoiy fanlar sohasidagi ziyolilar ustidan o‘rnatalgan mafkuraviy nazorati O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar saqlanib qolgan edi.

Xulosa

Shunday qilib, 1930–1940-yillar chegara davrida SSSRda mutlaq markazlashgan, zo‘ravonlik va repressiyaga tayanadigan totalitar tuzum to‘liq shakllandi. Bu davrda davlat hokimiyyati barcha ijtimoiy hayot sohalarini, jumladan, madaniyat, fan va san’atni qat’iy nazorat ostiga oldi. Ayniqsa, 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshlarida mafkuraviy maydonda boshlangan keng ko‘lamli hujumlar sovet mafkurasiga to‘liq bo‘ysunmagan ziyolilar — yozuvchilar, olimlar va san’atkorlarga qarshi qaratildi. Ular «burjua qarashlari» va «reaksion

madaniyat» qoldiqlarini targ‘ib qilayotganlikda ayblanib, doimiy tazyiq ostiga olinardi. «KPSS tarixi»da ifodalangandek, bu hujumlar fan, adabiyot va san’atda marksizm-leninizm tamoyillaridan og‘ishlarga qarshi kurash degan niqob ostida olib borildi. Natijada, fikr erkinligi, ilmiy izlanishlar va ijodiy faoliyat imkoniyatlari keskin cheklab qo‘yildi. Bu esa nafaqat shaxsiy fojialarga, balki umummilliyligini miqyosdagi madaniy va ilmiy turg‘unlikka olib keldi. Jamiyat yuksalishi, mamlakat rivojlanishi uchun uning ilg‘or vakillari bo‘lmish ziyorilarni hurmat qilish, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, erkin fikr va ijod muhitini vujudga keltirish kerak. Aks holda ilm-fan ma’lum bir qolipga tushib qoladi, yangi g‘oyalar uchun siyosiy to‘siqlar paydo bo‘ladi hamda mamlakat taraqqiyotdan ortda qoladi.

Biz ko‘rib o‘tgan davrdagi ziyorilarning taqdirini yana kengroq o‘rganish, ularning hayot yo‘llari to‘g‘risida ilmiy asoslangan hujjatli filmlar, badiiy asarlar yaratish zarur. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda mana shunday ilmiy badiiy asarlardan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Foydalanimanadabiyotlar ro‘yxati:

1. Убайдуллаев Ў. Ўзбекистонда 20-30- йилларда мустабид тузумга қарши миллий муҳолифат харакати. (маҳаллий зиёлилар фаолияти мисолида). Тарих фан. ном. илмий дар. олиш учун автoreфарат. –Тошкент. 1996, 3-б.
2. Узоков X. Ўзбекистонда мустақиллик учун кураш тарихи. (1900-1940 йиллар). Тарих фан. ном. илмий дар. олиш учун автoreфарат. –Тошкент. 1996, 39-40 б.
3. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг Янги тарихи 2- жилд/ –Тошкент. «Шарқ», 2000. 326-б.
4. Қаранг: Шамсуддинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. (Ўзбекистон Шўролар истибоди даврида). Иккинчи китоб.- Андижон. Меърос. 1998, 131-б.
5. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. /Ўзбекистоннинг Янги тарихи 2- жилд. –Тошкент. «Шарқ», 2000. 507-б.
6. М.Каримов. Ўзбек адабиётининг жаллодлари. // Фан ва турмуш, 1991йил №1. 12-б.
7. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. /Ўзбекистоннинг Янги тарихи 2- жилд –Тошкент. «Шарқ», 2000. 511-б.
8. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. /Ўзбекистоннинг Янги тарихи 2- жилд –Тошкент. «Шарқ», 2000. 513-б.
9. Усмонов И. Қайтмас тўлқинлар//Ёш ленинчи. 1987 йил 14 ноябр №217
10. Инсон ва эътиқод рамзи. // Ёш ленинчи. 1988 йил 9 июн №109
11. Усмонов И. Қисмат// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990 йил 5 январ №1

12. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида./ Ўзбекистоннинг янги тарихи 2-жилд.
—Тошкент. «Шарқ», 2000. 517-б.
13. Ёкубов О. Қишлоқдаги фожиа. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1987 йил 28 август №35
14. Каранг: Абдурахимов М.А. Обзор литературы, посвященной Тимуру и тимуридам, изданной в Узбекистане в 60-х годах// История СССР. 1973 г. №5 83-90 сс.; Бегматов А. Очилмаган Амир Темур. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990 йил 24 август №34